



UDK: 632+635+56

QORAQALPOG'ISTON SHAROITIDAGI MEVA BOG'LARIDA TARQALGAN QALQONDORLAR TURLARI MORFOLOGIYASI, BIOEKOLOGIYASIDAGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17440813>

Bekbergenov Miyirbek Orazbayevich

*mastaqil tadqiqotchi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti. Nukus shahri,*

ANNOTATSIYA: *Maqolada Qoraqalpog'iston sharoiti meva bog'larida tarqalgan qalqondorlar turlarining bir-biridan ajiraladigan morfologik belgilari, bioekologik rivojlanishini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari kiritilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *Tana, bosh, qorin bo'limi, tuxum, qurti, g'umbak, etuk zoti, biologiyasi, havo harorati, agroiklim.*

ABSTRACT: *The article presents the results of research conducted to determine the distinctive morphological features and bioecological development of the species of scale insects distributed in orchards in the conditions of Karakalpakstan.*

KEYWORDS: *Body, head, abdomen, egg, larva, pupa, adult breed, biology, air temperature, agroclimate.*

АННОТАЦИЯ: *В статье приведены результаты исследований по определению морфологических признаков и биоэкологических развития различающейся видов от друг друга, обитающих щитовки на плодовые в условиях Каракалпакстана.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Тело, голова, брюшка, яйца, личинка, куколки, эмаго, биология, температура воздуха, агроклимат.*

KIRISH

Qoraqalpog'iston agrobiotsenozida so'nggi yillari kuzatilayotgan ekologik omillarning o'zgarishlari qishloq xo'jaligi ekinlari va biotsenozda tarqalgan bug'umoyoqlilarning tur tarkibining o'zgarishlari darajasida ta'sirlarini ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonlar

natijasida ekinlar dalalarida tarqalib katta zarar keltiradigan zararkunandalarning ayrim turlari soni kamayganligi hisobga olingan bolsa, biotsenozning yangi a'zolari poyda bo'lishi kuzatilmoqda. Mazkur o'zgarishlarning oldinggilarga taqqoslanganda yanada murakkablashib borishi meva bog'larida tarqalgan



zararkunandalardan teng qanotlilar-Homoptera turkimining koksidlilar-Coccinea kenja turkimiga mansub 3 ta qalqondorlar (Diaspididae), soxta qalqondorlar (Coccidae) va mumg'ubor qurtlar-chervetslar (Pseudococcidae) oilasi vakillaridan koplagan turlari paydo bo'lganligi aniqlandi. Zararkunandalarning rivojlanish bioekologik xususiyatlarining tashqi muhit omillarga bog'liklik tomonlari, bugunga qadar to'liq o'rganilmaganligi tufayli olib borilayotgan qarshi kurash tadbirlarining samaradorligi kutilgan darajasida bo'lmayotganligi taqozo etiladi.

Mazkur turlar tarqalgan meva bog'larida rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi va zarar keltirish mezoniga ijobiy ta'sir etadigan tashqi muhit omillarini aniqlash bugungi kundagi dolzarb muammo ekanligini hisobga olib, bu borada laboratoriya.

Tadqiqot uslublari. Meva bog'larida uchraydigan qalqondorlar oilasiga mansub turlarni yig'ish, morfobioekologiyasini o'rganish uchun B.P.Adashkevich [1], zarar mezoni V.I.Tanskiy [3], tadqiqot natijalari dispersion tahlil qilinib, matematik statistik ishlov berish B.A.Dospexov [2] uslublari asosida bajarildi.

Tadqiqot natijalari: Respublikamizning turli agrobiotsenozi meva bog'larida tarqalib zarar keltiradigan zararkunandalarni o'rganish davomida meva daraxtlarining asosiy zararkunandalari sifatida girdak kuyasi

(Cemiostoma scitella Zell.), shaftoli shirasi (Myzodes persicae Sulz.), katta shaftoli tana shirasi (Pterochloroides persicae Chol.), o'rik-qamish shirasi (Hyalopterus pruni Geoffr.), o'rgimchakkana (Tetranychus urticae Koch.), meva o'rgimchakkanasi (Tetranychus viennensis Zacher.), meva qo'ng'ir kanasi (Bryobia redikorzevi Reck.), shaftoli soxta qalqondori (Parthenolecanium persicae F.), olxo'ri soxta qalqondori (Sphaerolecanium prunastri Fonsc.), Komstok qurti (Pseudococcus comstocki Kuw.), olma vergulsimon (Lepidosaphes ulmi L.), Koliforniya qalqondori (Diaspiotus perniciosus Comst.), akatsiya soxta qalqondari (Parthenolecanium corni Bche.), binafsha rang qalqondori (Parlatoria oleae Colvee.), turlari tarqalib, rivojlanishi biotsenozning asosiy elementlaridan ekanligi aniqlangan [4,5].

Qoraqalpog'iston agroiqlim sharoitidagi meva bog'larida tarqalgan qalqondorlarga mansub turlarning songgi yillari paydo bo'lishiga qaramay tarqalgan areallari kenggayib, keltirayotgan zarar mezoni ortib borayotganlarining morfologik belgilari, rivojlanish bioekologiyasi bugungi kundagi ekologix omillar o'zgarishlari ta'siri bo'yicha o'rganib borilmoqda.

Komstok qurti bugungi kundagi keng tarqalgan, hammaxo'r zararkunanda hisobida, deyarli barcha mevali daraxtlarda uchrab, jumladan olma, nok, shaftoli, o'rikda qattiq zararlaydiganligi aniqlandi. Zararkunanda urg'ochisi zoti



ko'rinishi yassi shaklli, uzunligi 3-4 mm dan 5-6 mm qanotsiz, kam harakat, erkagi esa 1 juft qanotli, serharakat, rangi qizgish-jigarrang tusda, uzunligi 1-1,5 mm, mo'ylovlari 10 bo'ginli bulichi bilan bir biridan farq qiladi. Tuxumi 0,3 mm, toraygan oval shaklda, rangi sarik-zargaldok, chiqqan lichinkalari birinchi yoshda 0,45 mm., ikkinchida 1,0 mm., (mo'ylovi 6 bo'g'inli, uchinchi yoshda 1,7 mm (mo'ylovi 7 bo'g'inli), yonlarida 16 juft o'sig'i ham bilinib turishi bilan boshqa turlardan ajralib turadi.

Zararkunanda urg'ochi zoti kuz oyiga borib daraxt po'stloqlarining osti, ildiz atroflari, xazon orasi, devor yoriqlarida mumsimon oq par (ovisak) chiqarib, ichiga tuxumlarini joylashtiradi va ushbu fazada qishlab chiqadi. Bahor kelishi bilan, havo harakatining ko'tarilishidan boshlab tuxumlardan lichinkalar ochib chiqib daraxt tanasi bo'ylab harakat qiladi va qulay joy tanlagach, uni sanchib so'rishga kirishadi. Ushbu joylarda tarqalgan avlodlari, ko'chat va mevalarning ustida, suv oqimi, dalada ishlatiladigan asbob-uskuna, kiyim kechak va boshqada vositalar orqali joydan joyga ko'chib o'tadigan xususiyatlariga ega. Lichinka uchinchi yoshdan keyin yetuk zotga aylanib, kelgusi avlod onalik zoti 10-30 kunlardan keyin tuxum qo'yishga kirishadi. Daraxtlarda tarqalgan lichinkalari, o'simliklarning barcha qismini shikastlab, odatda bargning orka tomonidagi tomirlar bo'ylab oziqlanganda, barglari sarg'ayib quriydi,

novdalari qingir-kiyshik bo'lib qoladi, daraxt tanasi, ildizlari va shoxlarida shish va yoriqlar hosil bo'ladigan darajadagi zararni yetkazadiganligi aniqlangan.

Hudud sharoitida tarqalgan qalqonlilar turidan olma vergulsimon qalqondori tanasi 1-3 mm., onalik zotining tanasi chuziq, orqa uchi kenggaygan, rangi oqimtir –kulrang, erkagi maydaroq, tuxumi oq, oval shakldagi ko'rinishda. Zararkunanda mahsus qalqoni ostida tuxum shaklida qishlab, havo harorati 8-9 OS dan oshganda lichinkalar chiqib, sanchib soriydigan og'iz naychalari yordamida ozuqlanishni boshlab, ushbu joyda, ortiqcha harakatlanmay rivojlanadi. Qurtlarining 1-yoshi 15-20 kun, 2-yoshi 20-30 kun davom etib, urg'ochi zotga aylanadi. Lichinkalari ushbu joylarda maxsus moddalar ajratib o'zini himoya qiladigan oqish qoplama xosil qilib, tagida rivojlanishi davom ettiradigan belgilari bilan boshqalaridan ajralib turadi.

XULOSA

Qoraqalpog'iston agrobiotsenozi meva bog'larida uchraydigan boshga turdagi qalqonlilar turining o'ziga xos morfologik, biologik jihatdan ajralib turadigan belgilari mavjud ekanligin hisobga olindi. Mazkur turlarning rivojlanish bioekologiyasi to'la o'rganilgan turida qarshi kurash tadbirlari olib borilganda, ko'rsatilgan natija beradiganligi hisobga olindi. Mazkur turlar poyda bo'lishi va yappasiga rivojlanishi kuzatiladigan meva



daraxtlarida, ushbu joylarda zararkunandaga qarshi qullash tavsiya etilgan kimyoviy preparatlarning birini

tanglab maxsus agregatlar yordamida kurash tadbirlarini olib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adashkevich B.P. Biologicheskaya zashita krestotsvetnix ovoshnix kultur ot vrednix nasekomix. –Tashkent: «Fan»,1983. -188. s.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. –M.: Agropromizdat, 1986. –B. 25-110.
3. Tanskiy V.I. Biologicheskiye osnovi izucheniya vredonosnosti nasekomix. – M.: «Agropromizdat», 1988. –B. 132-157.
4. Toreniyazov E.Sh., Xo‘jayev Sh.T.,Xolmurodov E.A. O‘simliklarni himoya qilish.-Toshkent. «Navruz».-875 b.
5. Xo‘jayev Sh.T. Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi hamda uyg‘unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. –Toshkent, «OOO Yangi Nashr Nashiryati»2019. – 375 b.